

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

EREJEPOV KEULIMJAY KAYMATDINOVICH

**KIRISH-CHIQUISH NAZORAT TIZIMLARI UCHUN SHAXSNI YUZ
TASVIRI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI**

05.01.03 –Informatikaning nazariy asoslari

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on technical
sciences**

Erejevov Keulimjay Kaymatdinovich

Kirish-chiqish nazorat tizimlari uchun shaxsni yuz tasviri asosida identifikatsiyalash
algoritmmlari.....3

Ережепов Кеулимжай Кайматдинович

Алгоритмы идентификации человека по изображению лица для систем
контроля доступа.....21

Erejevov Keulimjay Kaymatdinovich

Algorithms for identification of a person based on a face image for access control
systems.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....43

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

EREJEPOV KEULIMJAY KAYMATDINOVICH

**KIRISH-CHIQUISH NAZORAT TIZIMLARI UCHUN SHAXSNI YUZ
TASVIRI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI**

05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4554 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mamatov Narzillo Solidjonovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Mirzayev Nomaz**
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Eshmuratov Shavkat Artiqbayevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/26.05.2022.T.10.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-19-36, faks: (99871) 237-54-79, e-mail: admin@tiame.uz).

Dissertatsiya bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-19-45).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi.)

M.A. Ismailov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash raisi o'rinbosari,
texnika fanlari doktori, professor

D.Q. Bekmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari falsafa doktori (PhD)

S.S. Radjabov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tasvirlarga raqamli ishlov berish, qayta ishlash va tanib olish intellektual tizimlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda tasvirlarga dastlabki ishlov berish, tasniflash, tahlillash va tanib olish model, usul va algoritmlarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda amalga oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari, jumladan, AQSh, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Angliya, Germaniya, Hindiston, Fransiya kabi davlatlarda tasvirlarga raqamli ishlov berish, tasvirlarni tanib olish va sintezlash yo'nalishlarining nazariy va amaliy masalalarini yechishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda raqamli signallarga ishlov berish, tasvirlarni tanib olish usul va algoritmlarini takomillashtirish, ishlab chiqish hamda hisoblash algoritmlarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, shaxsni yuz tasviri asosida tanib olish yo'nalishida Apple, Microsoft, Google, Sber, NEC, IBM, NtechLab, Intel, Amazon, LG, JOS, XanVan, Wisisoft va Megvii kabi yirik kompaniya va korporatsiyalar yetakchilar hisoblanadi. Ular sun'iy intellekt texnologiyalari asosida signallarga ishlov berish, tanib olish sifati va tezligini oshirishning samarali vositalarini ishlab chiqish, takomillashtirish, ayniqsa, yuzda turli to'siqlar bo'lganda shaxsni identifikatsiyalashning modellarini qurish, optimallashtirish hamda tanib olishni avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ham mazkur yo'nalishda tasvirlarga dastlabki ishlov berish, tahlil qilish va tanib olishga mo'ljallangan dasturiy vositalarni ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasida, jumladan «robototexnika komplekslari va odamlar o'zaro ta'sirining algoritmlarini ishlab chiqish, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari infratuzilmasini, o'rnatilgan sensorlar va sensor tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek, «bulutli» xizmatlarini taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta'minot yaratish bo'yicha ilmiy ishlarni olib borish» hamda 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarorining 2021-2022 yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida ustovor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda jumladan, tasvirlarni sintezlash, tahlil qilish hamda yuz tasviri orqali kirish-chiqish nazorat tizimlarini yaratish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarni samarali yechish tasvirlarga ishlov berish va tanib olish model, usul va algoritmlarini, biometrik belgilar asosida identifikatsiyalash va autentifikatsiyalash, obyektlarni o'ziga xos belgilar majmuasini tanlashni inobatga olgan holda rivojlantirish, shuningdek, kirish-chiqish qaydnomalarni shakllantirish, nazorat va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish tasvirlarga ishlov berishning samarador va tanib olish sifati yuqori bo'lgan usul va algoritmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi

to'g'risida», 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3245-son «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 «Raqamli O'zbekiston- 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida» Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tasvirlarga ishlov berish va tanib olishning model, usul va algoritmlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish masalalarini yechish, ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha xorijiy olimlardan U.Prett, T.Xuang, R.Duda, N.Kim, B.Xorn, Y.Furman, A.Gorelik, A.Rozenfeld, T.Pavlidis, R.Gonsales, R.Vuds, V.Soyfer, Yu.Juravlev, V.Kirichuk, Yu.Yakushenkov, I.Salnikov va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovor.

O'zbekistonda tasvirlarni tahlil qilish va qayta ishlash, tasvirlardagi obyekt belgilarini shakllantirish, informativ belgilar majmuasini shakllantirish, timsollarni tanib olish va tasniflashni nazariy asoslarini rivojlantirishga M.M.Kamilov, Sh.X.Fozilov, S.S.Sodiqov, M.M.Musaev, R.X.Xamdov, D.T.Muxamediyeva, N.S.Mamatov, N.Mirzaev, S.S.Radjabov, Sh.Ye.Tulyaganov va boshqalar o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Inson faoliyatining barcha sohalarida xavfsizlikni samarali hal etish va ta'minlash shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, binolar, axborot va resurslar xavfsizligini ta'minlovchi kirishni boshqarish samarali tizimlariga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Bunda biometrik texnologiyalarga asoslangan xavfsizlik tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, yuz tasvirlariga asoslangan shaxsni identifikatsiyalash va autentifikatsiyalash algoritmlari istiqbolli yechimlardan biri sifatida markaziy o'rinni egallaydi. Shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishda kompyuterli ko'rish va sun'iy intellekt texnologiyalari yuzni nisbatan aniq va ishonchli aniqlash uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bunda foydalaniladigan algoritmlar real vaqt rejimida ishlashi va identifikatsiya jarayonida yuqori aniqlik va tezlikni ta'minlashi zarurdir.

Hozirgi kunda tasvirlarga dastlabki ishlov berish asosida soha ma'lumotlarini raqamlashtirish tizimlarini ishlab chiqish hamda biometrik texnologiyalar asosida shaxsni identifikatsiyalash jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili tasvirlarni tahlil qilish asosida undagi obyektlarni ajratish va tanib olish texnologiyalari eng yaxshi, istiqbolli texnologiyalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Biroq, bunday texnologiya asosida shaxsni yuz tasviri asosida tanib olish avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratishda vujudga keladigan muammolar hozirgi kungacha to'liq hal etilmagan. Bundan tashqari,

dastlabki ishlov berish asosida tasvirlarni qayta ishlash va ulardagi yuz tasvirlarini tanib olishning ixcham, ishonchli, mustaqil va yuqori tezlikni ta'minlovchi usul va algoritmlarini ishlab chiqish muammosi yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining BV-Atex-2018 (240+147) «Yuz tasvirlarini oqimli qayta ishlash asosida shaxsni identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish» (2018-2020), IL-33,41-2105981 «Nutq signallarini qayta ishlash asosida shaxsni tanib olish algoritmlari va dasturiy mahsulotini yaratish» (2021-2023) mavzudagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kirish-chiqish nazorat tizimlari uchun shaxsni yuz tasviri asosida identifikatsiyalash algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yuz tasviri asosida tanib olishning zamonaviy tizimlarini tahlil qilish;

shaxs yuz tasvirlar bazalarini tadqiq qilish va shakllantirish;

tasvir sifatini baholash mezonini inobatga olgan holda tasvir kontrastini sohali oshirish algoritmini ishlab chiqish;

tasvir sifatini baholash mezon qiymatlarini inobatga olgan holda shovqin darajasini aniqlash qoidasini ishlab chiqish;

kontur ingichkalashtirish algoritmini takomillashtirish;

mavjud va taklif etilgan usul hamda algoritmlarni qiyosiy tahlil qilish nuqtai nazaridan tajribaviy tadqiqotlar o'tkazish;

mavjud va taklif etilgan algoritmlar asosida yuz tasvirlarini tanib olish dasturiy majmuasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida shaxsni yuz tasvirlari olingan.

Tadqiqotning predmetini shaxsni yuz tasviri asosida identifikatsiyalashning model, usul, algoritmlari hamda dasturiy ta'minoti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ishning nazariy tadqiqotlari tizimli tahlil, imitatsion modellashtirish, ehtimollik nazariyasi, matematik statistika, diskret matematika, tasvirlarga ishlov berish, mashinali va chuqur o'qitish, tanib olish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tasvir sifatini baholash mezonini inobatga olgan holda tasvir kontrastini sohali oshirish algoritmi taklif etilgan;

tasvir sifatini baholash mezon qiymatlarini inobatga olgan holda shovqin darajasini aniqlash qoidasi shakllantirilgan;

kontur chiziqlari xususiyatlarini inobatga olgan holda kontur ingichkalashtirishning bidiagonal algoritmi ishlab chiqilgan;

kompaktlik gipotezasi asosida yuz tasvir informativ belgilarini shakllantirish algoritmi ishlab chiqilgan;

shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishning neyron tarmoq modeli taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yuz tasvirlar sifatini oshirish va tasvir konturlarini ingichkalashtirish hamda yuz tasvirida informativ belgilarni shakllantirish algoritmlari ishlab chiqilgan;

mavjud hamda ishlab chiqilgan yondashuv, usul va algoritmlarga asoslangan shaxsni yuz tasviri bo'yicha tanib olishni dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi algoritmlarni ishlab chiqishda shaxsni yuz tasvirlari asosida identifikatsiyalashning matematik apparatining to'g'ri qo'llanilishi hamda tajribaviy tadqiqotlarning ijobiy natijalari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tasvirlarga ishlov berish, tasvir sifatini oshirish va qayta ishlash nazariy asoslarini istiqbolli rivojlanishiga ishlab chiqilgan algoritmlarni hissa qo'shishi bilan izohlanadi. Tasvirlarga ishlov berish uchun taklif etilgan tasvir sifatini oshirish va kontur chiziqlarini ajratish algoritmlari hamda qoidalariga ega avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan dasturiy majmua tasvirlarga raqamli ishlov berish, tasvirlarni shakllantirish, sifatini oshirish va tanib olish orqali turli avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shaxsni yuz tasviri asosida identifikatsiyalashni mavjud va taklif etilgan yondashuv, model, usul va algoritmlari asosida yaratilgan dasturiy majmua asosida:

tasvir sifatini baholash mezonini va uni qiymatlarini inobatga olgan holda kontrastni sohali oshirish algoritmi hamda shovqin darajasini aniqlash qoidasi asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida talabalarini identifikatsiyalash uchun joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024 yil 24-maydagi BK-06/755 son ma'lumotnomasi). Natijada institut talabalarini fakultet binolariga kirish-chiqishini nazorat qilishga sarflanadigan vaqtini o'rtacha 10 foizga qisqartirish imkonini bergan;

kontur chiziqlari xususiyatlarini inobatga olgan holda kontur ingichkalashtirishni bidiagonal algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Qoraqalpog'iston Respublikasi "Zamanago'y texnologiya ha'm kompyuter" ma'sulyati cheklangan jamiyatida xodimlarni kirish-chiqishini nazorat qilish uchun joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024 yil 24-maydagi BK-06/755 son ma'lumotnomasi). Natijada xodimlarni binoga kirish-chiqishini nazorat qilishda 98% aniqlik bilan tanib olishga sarflanadigan vaqtini o'rtacha 10 foizga qisqartirish imkonini bergan;

kompaktlik gipotezasi asosida yuz tasvir informativ belgilarini shakllantirish algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filialida talabalarini binoga kirish-chiqishini nazorat qilish uchun joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024 yil 24-maydagi BK-06/755 son ma'lumotnomasi). Natijada xodimlarni binoga kirish-chiqishini nazorat qilishda 98% aniqlik bilan tanib olishga sarflanadigan vaqtini o'rtacha 12 foizga qisqartirish imkonini bergan;

shaxsni yuz tasviri asosida tanib olish uchun taklif etilgan neyron tarmoq modeli asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida talabalarni binoga kirish-chiqishini nazorat qilish uchun joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024 yil 24-maydagi BK-06/755 son ma’lumotnomasi). Natijada universitet talabalarini davomotlarini yuritishda yuz tasviri asosida shaxsni tanib olishdan foydalanib, 97 % aniqlik bilan identifikatsiyalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan 5 tasi xorijiy va 8 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarini qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchiligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Shaxsni yuz tasviri tahlili asosida tanib olish muammosining zamonaviy holati”** deb nomlangan birinchi bobi shaxsni yuz tasviri tahlili asosida tanib olish muammosining zamonaviy holatiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishning asosiy masalalari va o‘ziga xos jihatlari bayon etilgan hamda zamonaviy tizimlari tahlil etilgan.

1.1-paragraf shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishning asosiy masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tanib olish bosqichlari, yuz tasviri asosida shaxsni identifikatsiyalashda qo‘llaniladigan mashinali o‘qitish va katta hajmli ma’lumotlar bazasidan tasvirlarni qidirish usullari, shuningdek, qidiruv tizimi hamda kirishni boshqarish tizimlari sxemalari keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, tizimlarga qo‘yiladigan talablar hamda tizimlarni baholashda foydalaniladigan xatolik mezonlari bayon etilib, hujjatlarda tasvirlarni nazorat qilish masalasi ham yoritilgan. Ushbu masalani hal etish uchun mavjud usul va algoritmlarni moslash yondashuvlari tahlil etilgan.

1.2-paragrafda shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishning o‘ziga xos jihatlari bayon etilgan bo‘lib, unda yuz tasviriga asoslangan tizimlarning qo‘llanish sohalari, tanib olishda qo‘llanilgan mexanizmlar, tizimlarni amalga oshirish bosqichlari, model,

usul va algoritmlari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, mazkur paragrafda yuz tasvirni tanib olishda foydalaniladigan yuz tasvirlar bazalari, tanib olish tizimlari kelajagi va masalalari to'liq o'rganilib, tasvirni tanib olishning umumiy sxemasi shakllantirilgan.

1.3-paragraf hozirgi kunda dunyoda yuz tasviri asosida tanib olishni keng tarqalgan zamonaviy tizimlari tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda tizimlarni shakllantirishdagi dolzarb masalalar, asosiy vazifalar, kiruvchi ma'lumotlar va ularni turlari, tanib olishda qo'llaniladigan kutubxonalar bayon etilgan. Shuningdek, mazkur paragrafda mavjud tanib olish tizimlarini yutuq va kamchiliklari hamda o'ziga xos xususiyatlari, texnik va dasturiy talablari keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Yuz tasviriga dastlabki ishlov berish va belgilarni shakllantirish algoritmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi tasvirda yuz joylashgan sohani aniqlash, tasvir sifatini oshirish, kontur ajratish, tasvirni normallashtirish va belgi shakllantirish algoritmlariga bag'ishlangan bo'lib, unda yuz tasvirlarida kontrast oshirishni yangi yondashuvi taklif etilgan. Shuningdek, tasvirlarni barcha turida uchraydigan Gauss shovqini darajasini aniqlash mexanizmi ishlab chiqilgan va yuz tasvirlaridan belgilarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi konturlarni ingichkalashtirishni takomillashtirilgan algoritmi taklif etilgan. Bundan tashqari, belgilarni shakllantirish usul va algoritmlari bayon etilgan.

2.1-paragrafda tanib olish tizimlari va ularni qadamlari tahlil etilib, yuz tasvirini modellashtirish usullari tavsiflangan. Shuningdek, mazkur paragrafda tasvirdagi yuz joylashgan sohani aniqlash algoritmlari keltirilgan bo'lib, ularning yutuq va kamchiliklari bayon etilgan.

2.2-paragrafda tasvir sifatini oshirish usullari tasniflanib, tasvir xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, mazkur paragrafda shaxsni yuz tasviri kontrastini oshirish yondashuvi taklif etilgan bo'lib, u quyidagi qadamlarda amalga oshiriladi:

1-qadam. Tasvirni fragmentlarga ajratish amalga oshiriladi;

2-qadam. Har bir fragment uchun mos kontrast oshirish algoritmini qo'llash amalga oshiriladi;

3-qadam. Har bir fragment biron bir mezon bo'yicha baholanadi;

4-qadam. Har bir fragment uchun olingan mezon qiymatiga ko'ra optimal algoritm aniqlanadi va fragmentlarni birlashtirish orqali yagona tasvir shakllantiriladi.

Taklif etilgan yondashuvni birinchi qadami asl yuz tasvirini kichik fragmentlarga ajratishdan iborat bo'lib, bunda har bir fragmentga mos kontrastni oshirish algoritmi qo'llaniladi. Fragment o'lchami esa obyekt va uning tabiatiga ko'ra turlicha olinishi mumkin. Odatda, fragment o'lchamlari tasvir kontrastidagi farqlarni inobatga olish uchun yetarlicha kichik, biroq tahlilda statistik ahamiyatga ega bo'lishi uchun yetarlicha katta bo'lishi shart. Tadqiqot ishida kontrastni oshirish uchun gistogramma tekislash, CLAHE, chiziqli kontrastlash algoritmlaridan foydalanilgan. Kontrastni oshirish uchun olingan algoritmlarni baholash tasvir yorqinligini standart og'ishiga asoslangan RMS mezoni asosida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari taklif etilgan yondashuvni mavjud algoritmlarga nisbatan samarali ekanligini ko'rsatdi.

Odatda tasvirlar halaqitsiz bo'lmaydi. Shuning uchun mazkur paragrafda tasvirga olish va tasvirni raqamlashtirish bosqichida yuzaga keluvchi xalaqitlar o'rganilib, tadqiq etilgan. Xususan, tasvirlarni deyarli barcha turlarida uchraydigan Gauss

shovqini tadqiq etilgan bo‘lib, ishda ushbu shovqin darajasini aniqlash qoidasi taklif etilgan. Taklif etilgan qoidada shovqin darajasi BRISQUE qiymatiga ko‘ra baholanadi va Gauss shovqini darajasini ko‘rsatuvchi parametr aniqlanadi. Parametr qiymatlarini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Faraz qilaylik, $D - R^2$ fazodagi chegaralangan soha ($D \subset R^2$), $T_{org}(x, y)$ -toza tasvir va $T_{real}(x, y)$ - real tasvir, p -shovqin darajasini ko‘rsatuvchi parametr bo‘lsin. Bu yerda $(x, y) \in D$.

Mazkur ishda Gauss shovqini parametri sifatida “variance” o‘zgaruvchan, “mean” esa fiksirlangan deb faraz qilinadi. Ya’ni, p parametr sifatida “variance” ning o‘zgaruvchan qiymatlari olinadi ($p \in [0;0.2]$). Tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichi sifatida insonni subyektiv bahosiga yaqin bahoni ta’minlaydigan BRISQUE mezonidan foydalanilgan va ushbu mezon qiymati Br kabi belgilangan.


Tadqiqotlarda dastlab tajriba uchun olingan tasvirlar BRISQUE qiymatlari bo‘yicha toifalarga ajratiladi (1-jadval).

1-jadval

BRISQUE qiymati bo‘yicha tasvirlarni toifalanishi

Tasvir sifati	Oraliq
Best	(0;21)
Good	[21-41)
Medium	[41;61)
Poor	[61;81)
Bad	[81;100)

Mazkur qoidada T_{org} tasvirga turli darajadagi $p_i (i = \overline{0,0.2})$ qiymatlarida Gauss shovqinini qo‘shish orqali T_{noisy}^i shovqinli tasvirlar hosil qilinadi. Shakllantirilgan shovqinli tasvirlarning Br qiymatlaridan foydalangan holda, yangi T_{real} tasvirni Gauss shovqin parametr oralig‘ini aniqlash quyidagi sxema orqali amalga oshiriladi.



1-rasm. T_{real} tasvir Gauss shovqini parametrini aniqlash sxemasi

Tajribaviy tadqiqotlarda BRISQUE oraliqlariga mos p parametr oralig‘lari aniqlanib, o‘z-aro o‘tishning quyidagi qoidasi shakllantirilgan:

Agar $Br(T_{real}) \in (0; 21]$ bo'lsa, u holda "Best" $p \in [0; 0.0002]$

Agar $Br(T_{real}) \in (21; 41]$ bo'lsa, u holda "Good" $p \in [0.001; 0.005]$

Agar $Br(T_{real}) \in (41; 61]$ bo'lsa, u holda "Medium" $p \in [0.0006; 0.002]$

Agar $Br(T_{real}) \in (61; 81]$ bo'lsa, u holda "Poor" $p \in [0.003; 0.01]$

Agar $Br(T_{real}) \in (81; 100)$ bo'lsa, u holda "Bad" $p \in [0.05; 0.09]$.

2.3-paragraf kontur chiziqlarini ahamiyati, ingichkalashtirish masalalari va kontur chiziqlarini ingichkalashtirishning mavjud algoritmlariga bag'ishlangan bo'lib, unda tasvirlarni tahlil qilishda ingichkalashtirilgan konturlarni afzalliklari va ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur paragrafda kontur chiziqlarini ingichkalashtirishning mavjud algoritmlari tahlili asosida kontur ingichkalashtirish uchun "Bidiagonal" deb nomlanuvchi yangi algoritm taklif etilgan. Umumiy holda kontur ingichkalashtirish uchun quyidagi bosqichlarni bajarilishi talab etiladi:

1-bosqich. Berilgan tasvir kontrastini oshirish amalga oshiriladi. Bunda shaxs yuz tasviri uchun ishda taklif etilgan kontrastni sohali oshirish yondashuvidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2-bosqich. Tasvir sifatini oshirish va konturlar uzluksizligini ta'minlash amalga oshiriladi.

3-bosqich. Tasvir konturlarini ajratish amalga oshiriladi. Bunda yuqoridagi bosqichlar asosida shakllantirilgan tasvir konturlarini ajratish uchun hozirgi kunda mashhur hisoblangan Sobel, Canny, Prewitt algoritmlaridan foydalanish tavsiya etiladi va binarizatsiyalash amalga oshiriladi.


4-bosqich. Binar tasvarda hosil bo'lgan kontur chiziqlarini ingichkalashtirish amalga oshiriladi. Bunda taklif etilgan bidiagonal algoritmdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Quyida taklif etilgan Bidiagonal algoritmining ishlash tamoyili keltirilgan.

Algoritmning 1-subiteratsiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

a) $2 \leq B(p_1) \leq 6$; b) $A(p_1) = 1$; c) $p_9 \vee p_5 = 0$; d) $p_2 \vee p_4 \vee p_6 = 0$; e) $p_4 \vee p_6 \vee p_8 = 0$

Algoritmning 2-subiteratsiyasi esa quyidagicha amalga oshiriladi:

a) $2 \leq B(p_1) \leq 6$; b) $A(p_1) = 1$; c) $p_3 \vee p_7 = 0$; d) $p_2 \vee p_4 \vee p_8 = 0$; e) $p_2 \vee p_6 \vee p_8 = 0$



2-rasm. Bidiagonal algoritmida tekshiriluvchi holatlar

a) $p_9 p_5$ b) $p_2 p_4 p_6$ c) $p_4 p_6 p_8$ d) $p_3 p_7$ e) $p_2 p_4 p_8$ f) $p_2 p_6 p_8$

Yuqorida keltirilib o‘tilgan kontur ingichkalashtirish algoritmlari natijalari pikselma-piksel tekshirish orqali baholangan bo‘lib, bunda konturlari ekspertlar tomonidan ajratilgan tasvir bazasidan foydalanilgan. Bundan tashqari, tajribaviy tadqiqotlarda foydalanilgan tasvirlar bazasi haqida ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan.

Shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishda geometrik normallashtirish muhim ahamiyatga ega. Geometrik normallashtirishda asosiy belgilar sifatida ko‘zlarni markaziy nuqtalari olinadi.

Hozirgi kunda tasvirdagi ko‘z joylashuvini aniqlashni ko‘plab algoritmlari mavjud. Ishda samaradorligi yuqori bo‘lgan yuz tasvirini normallashtirish algoritmi bayon etilgan bo‘lib, ushbu algoritm tasvirdagi yuz sohasi aniqlangandan so‘ng qo‘llaniladi.

2.4-paragraf yuzni samarali tanib olishda qo‘llaniladigan belgilarni ajratib olish usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yuz belgilarini ajratib olishning mavjud usullari sinflari batafsil bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Yuz tasviri informativ belgilar fazosini shakllantirish va tanib olish algoritmlari”** deb nomlangan uchinchi bobi yuz tasvir informativ belgilarini ajratib olish muammosi va tanib olish algoritmlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda informativ belgilarni ajratib olishning asosiy masalalari qarab chiqilgan. Shuningdek, mazkur bobda yuz tasvirlarini tanib olish algoritmlari va ularni tavsiflari bayon etilgan bo‘lib, unda neyron tarmoqlarga asoslangan usullarga aloxida urg‘u berilgan.

3.1-paragrafda shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishda informativ belgilar fazosini shakllantirish masalasi yoritilib, uning matematik qo‘yilishi keltirilgan.

3.2-paragraf tasvirdagi informativ sohani lokallashtirish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda soha lokallashtirishning model, usul va algoritmlari tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur paragrafda shakl faol modellari, tashqi ko‘rinish aktiv modellari kabi soha lokallashtirishning mashhur algoritmlari qadamlari keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, modellarni birlashtirish usuli bosqichlarida bayon etilib, belgilar fazosi o‘lchamini kamaytirishning mavjud va keng tarqalgan usullari tahlil etilgan.

3.3-paragrafi Fisher informativlik mezoni asosida informativ belgilarni shakllantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda informativ belgilar fazosini shakllantirish masalasi va uning qo‘yilishi, kompaklik gipotezasi asosida informativ belgilarni aniqlash yondashuvi, Fisher mezoni va u asosida informativ belgilarni aniqlash algoritmi keltirib o‘tilgan. Taklif etilgan algoritm bo‘yicha uning 1-qadamida belgilar qism fazosini shakllantirishda N o‘lchovli $\lambda = (\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_N)$ Bul vektordan foydalaniladi. Boshlang‘ich belgilar fazosida λ vektorga nisbatan Evklid normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\|x\|_{\lambda} = \sqrt{\sum_{i=1}^N \lambda_i x_i^2}$$

X_p sinf obyektlari xarakterlovchi belgilarning o‘rta qiymati \bar{x}_p quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\bar{x}_p = \frac{1}{m_p} \sum_{i=1}^{m_p} x_{pi}, \quad p = \overline{1, r}.$$

O'rtacha qiymat asosida har bir sinfning ichki masofasi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_p(\lambda) = \sqrt{\frac{1}{m_p} \sum_{i=1}^{m_p} \|x_{pi} - \bar{x}_p\|_{\lambda}^2}.$$

bu yerda $S_p(\lambda)$ λ vektorga nisbatan X_p sinf obyektining o'rtacha kvadratik tarqoqligini tavsiflab beradi.

Sinflar orasidagi o'rtacha kvadratik tarqoqlik quyidagicha hisoblanadi:

$$R_{p,q}(\lambda) = \sum_{p,q=1}^r \|\bar{x}_p - \bar{x}_q\|_{\lambda}^2 = \|\bar{x}_p - \bar{x}_q\|_{\lambda}.$$

Bunda $R_{p,q}(\lambda)$ qiymat X_p va X_q ($p, q = \overline{1, r}; p \neq q$) sinflar juftligidagi obyektning o'rtacha kvadratik tarqoqligini tavsiflab beradi.

Yuz tasviri asosida shaxsni tanib olishda foydalaniladigan belgilar qism fazosini shakllantiruvchi mezon sifatida quyidagi funksionaldan foydalanish tavsiya etiladi:

$$I(\lambda) = \frac{\sum_{p,q=1}^r \|\bar{x}_p - \bar{x}_q\|_{\lambda}^2}{\prod_{p=1}^r S_p^2(\lambda)}. \quad (1)$$

(1) funksional Fisher tipidagi funksionalni umumlashgan ko'rinishini ifodalaydi va sinflar soni r ta bo'lgan holda qo'llaniladi.

Belgilar fazosida N o'lchovli a va $b^{(1)}, b^{(2)}, \dots, b^{(r)}$ vektorlari kiritiladi va uning komponentalari quyidagicha aniqlanadi:

$$a_j = \sum_{p,q=1}^r (\bar{x}_p^j - \bar{x}_q^j)^2; j = \overline{1, N}, b_j^{(p)} = \left[\frac{1}{m_p} \sum_{i=1}^{m_p} (\bar{x}_p^j - x_{pi}^j)^2 \right]; j = \overline{1, N}, p = \overline{1, r}.$$

Olingan natijaviy vektorlarga ko'ra (1) funksionalni quyidagi ko'rinishga keltirish mumkin:

$$I(\lambda) = \frac{(a, \lambda)^r}{\prod_{j=1}^r (b^{(j)}, \lambda)} \rightarrow \max, \quad (2)$$

bu yerda $(*, *)$ – vektorlarning skalyar ko'paytmasi.

Fisher ko'rinishdagi umumiy mezon asosida ℓ informativ belgilar fazosini shakllantirishni quyidagi masalasi qaraladi:

$$I(\lambda) = \frac{(a, \lambda)^r}{\prod_{j=1}^r (b^{(j)}, \lambda)} \rightarrow \max, \quad (3)$$

$$\lambda \in \Lambda^l, \lambda_i = \{0, 1\}, i = \overline{1, N}, a, b^{(j)} \in R^N, a_i \geq 0, b_i^{(j)} > 0, j = \overline{1, r}, i = \overline{1, N},$$

bu yerda $\Lambda^l - l$ o'lchovli informativ belgilar fazosi.

Dastlab λ^0 vektorni $\lambda^0 = \left(\underbrace{1, 1, \dots, 1}_{\ell \text{ ta}}, \underbrace{0, 0, \dots, 0}_{N - \ell \text{ ta}} \right)$ ko'rinishda olinadi va quyidagi

belgilashlar kiritiladi:

$$A = \sum_{i=1}^l a_i, B_j = \sum_{i=1}^l b_i^j, j = \overline{1, r}.$$

(3) masalani yechish uchun yordamchi C vektori kiritib olinadi va uning komponentalari quyidagicha hisoblanadi:

$$c_i = \frac{a_i}{A} - \sum_{j=1}^r \frac{b_i^{(j)}}{B_j}$$

$\forall \mu \in \Lambda^\ell$ va λ^0 vektor asosida shakllantirilgan C vektorlar berilgan bo'lsin.

Tanlangan λ vektor (3) masalaning optimal yechimi bo'lishi uchun $(C, \mu) > 0$ shartni qanoatlantiruvchi μ vektorning mavjud bo'lmisligi zarur va yetarli. μ vektor quyidagicha shakllantiriladi:

Agar C vektorni komponentlarini kamayish tartibida tartiblab, uning eng katta komponentiga mos keluvchi nomeri - j_1 , ikkinchisi esa - j_2 , va hokazo bo'lsin, ya'ni

$$c_{j_1} \geq c_{j_2} \geq c_{j_3} \geq \dots \geq c_{j_N}, \quad (4)$$

u holda μ vektor komponentalari quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu_{j_1} = 1, \mu_{j_2} = 1, \dots, \mu_{j_\ell} = 1, \mu_{j_{\ell+1}} = 0, \mu_{j_{\ell+2}} = 0, \dots, \mu_{j_N} = 0. \quad (5)$$

Bunda C vektorni dastlabki ℓ ta maksimal qiymatiga mos keluvchi μ vektorning komponentalari 1 ga qolganlari esa 0 ga teng, ya'ni μ vektor ham ℓ -informativ vektor bo'lib, $(C, \mu) = \max \{(C, \eta) \mid \eta \in \Lambda^\ell\}$ bo'ladi.

Birinchi qadamda λ^0 vektor tanlanadi va navbatdagi har bir qadamda yangi λ vektor o'zidan oldingi vektor asosida shakllantirilgan μ vektor qiymatini o'zlashtirish orqali shakllantiriladi, ya'ni, $\lambda = \mu$. μ vektorni shakllantirish jarayoni $I(\lambda) = I(\mu)$ tenglik bajarilmaguncha davom ettiriladi.

Taklif etilgan usul algoritmi quyidagi qadamlardan tashkil topgan:

1-qadam. $\lambda = \left\{ \underbrace{1, 1, \dots, 1}_\ell, 0, 0, \dots, 0 \right\}$ deb olinadi.

2-qadam. A va B_j lar hisoblanadi, ya'ni $A = (a, \lambda), B_j = (b^{(j)}, \lambda)$.

3-qadam. C vektor komponentalari aniqlanadi: $c_i = \frac{a_i}{A} - \sum_{j=1}^r \frac{b_i^{(j)}}{B_j}$.


4-qadam. (4) va (5)larga asoslanib μ vektorni shakllantirish protsedurasi bajarilib μ vektor aniqlanadi.

5-qadam. C va μ vektorlarning skalyar ko'paytmasi hisoblanadi. Agar $(C, \mu) > 0$ bo'lsa, u holda $\lambda = \mu$ deb olinadi va 2 qadamga o'tiladi, aks holda λ optimal yechim va jarayon to'xtatiladi.

3.4-paragraf shaxsni yuz tasviri tahlili asosida tanib olish usul va algoritmlariga bag'ishlangan bo'lib, unda tanib olish usullarini algoritmik xususiyatlari bo'yicha tasniflanish va tasvirlarni taqqoslash usullari bo'yicha ma'lumotlar, shuningdek, ularni tasniflash sxemasi keltirilgan. Shuningdek, mazkur paragrafda tasvirning to'liq bo'lmagan ma'lumotlari asosida tanib olish usullari batafsil tahlil qilingan.

Yuzni tanib olish shaxsni tanib olish maqsadida tasvir yoki videoda inson yuzini

avtomatik lokalizatsiyalash bo‘lib, unga asoslangan tizimlarga qiziqish yuqori hisoblanadi. Bunda tasvir dastlab boshlang‘ich ko‘rinishga keltiriladi, buning uchun tasvirga dastlabki ishlov berish, qayta ishlash, almashtirishlar kabilar amalga oshiriladi. Har qanday tasvirni tanib olish quyidagi tuzilmada keltirilgan bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin.




3-rasm. Tasvirlarni tanib olish usuli tuzilmasi

Ishda yuz tasvirini tanib olishda qo‘llaniladigan usul va algoritmlar tahlil etilib, batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Neyron tarmoqlar mavjud usullarga nisbatan kuchli umumiyashtirish xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun ishda ular haqida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.

Fisher mezonini asosida ajratib olingan informativ belgilarni tarmoq ichida ajratilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiruvchi ma‘lumot, ya‘ni tanib olishda neyron tarmoq uchun yuz tasviri kiruvchi ma‘lumot sifatida olinishi mumkin.

